

Glossariy:

Gul – yopiq urug‘li o‘simliklarning jinsiy urchish organi. Gul cheklangan o‘shishi va shakli o‘zgargan novda bo‘lib, o‘simliklar jinsiy ko‘payishida ishtirok etadi.

Changchi – gulli o‘simliklarning gulining asosiy qismi bo‘lib, changdon va changchi ipidan tashkil topadi. Changchi oziq moddalarga (qand, yog‘, mineral tuzlar, oqsil) boy bo‘lib, ular chang donachalarining o‘shishi uchun ishlatiladi.

Urug‘kurtak (ovulum) – yuksak o‘simliklarda urug‘chi gulida urug‘lanishdan keyin tugunchada hosil bo‘ladigan bo‘rtma. Bu meva bargi (platsenta) yoki urug‘poyada maxsus o‘simtalarda joylashadi va odatda sharsimon yoki tuxumsimon shaklga ega bo‘ladi.

Ginesey (yun. *gyne* — ayol, *oikion* — uy, boshpana) – gulning reproduktiv qismi bo‘lib, barcha meva bargchalar yig‘indisidan tashkil topadi. Bu qismlar bir-biriga qo‘shilmay, erkin joylashib, har biri alohida urug‘chi hosil qiladi.